

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUHABBAT KONSEPTI (“Muhabbat” qissasi misolida)

Shohruxbek Mahmudjonov Sohibjon o‘g‘li

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Mo‘tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

soyibjonovamotabaroy@gmail.com

tel: +998941089617

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalariga doir hisoblangan konseptologik tadqiqotga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot Abdulla Qahhor asarlari misolida tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: sevgi, muhabbat, konsept, konseptologik tadqiqot, kognitiv tahlil, tushuncha.

АННОТАЦИЯ

Данная статья представляет собой концептуальное исследование новых направлений современной лингвистики, основанное на работах Абдуллы Каххора.

Ключевые слова: любовь, любовь, концепт, концептуальное исследование, когнитивный анализ, понимание.

ABSTRACT

This article is a conceptual study of new areas of modern linguistics, based on the work of Abdullah Qahhor.

Keywords: love, love, concept, conceptual research, cognitive analysis, understanding.

KIRISH

So‘nggi yillarda nazariy tilshunoslikda yetarlicha muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib borildi va zamonaviy tilshunoslik hamda uning yangi paydo bo‘lgan sohalarini o‘rganish tadqiqotchilarni e‘tibor markaziga tushib ulgurdi. Kognitiv (“cognition” – bilish, “cognize” – bilmoq, tushunmoq, “cognitive” - bilishga oid, “cognition” – aql, tafakkur) lingvistika zamonaviy tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida kognitiv fandan vujudga kelgan. Kognitiv lingvistikani boshqa kognitiv fanlar o‘rtasidagi farqi uning kognitiv materiali bilan bog‘liq hodisa, ya‘ni kognitiv lingvistikani

ongni o'rganish materiali - til. XX asrning 90 - yillarida tilshunoslikda kognitiv lingvistika bilan bog'liq konseptologik tadqiqot ishlari boshlana bordi. Konseptsiya ma'lum tadqiqotlar mobaynida bir qancha talqinlar bilan ko'zga tashlanadi. Misol uchun lotin tilidan tarjima qilinganda "conceptus" – tushunchaga degan ma'noni anglatadi , ammo shu bilan birga konsept o'zida tushunchaga nisbatan kengroq ma'nolarni ifodalaydi . U ma'lum belgi haqidagi bilimlar , narsa va hodisa haqidagi har bir lisoniy jamoaga xos tushunchalar mazmunini ifodalaydi. Til esa tushunchalarni ifodalashning samarali vositasidir [2, 363].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyida biz tadqiq etmoqchi bo'lgan konseptologiya ham kognitiv tilshunoslikning bir yo'nalishi hisoblanib, uning o'rganish obyekti konsept(konseptsiya)dir. Zamonaviy tilshunoslikda mavjud bo'lgan konseptni aniqlash muammosi bilan konsept va til birliklari o'rtasidagi munosabatlar muammosi o'zaro bog'liq hodisa. Hozirgi kunda konsept atamasiga doir bir qancha qarash va nazariyalar mavjud. Shu jumladan, Yu.S.Stepanov konseptni "inson ongida madaniyat o'chog'i, bu madaniyat shaklida insonning aqliy olamiga kiradigan narsa"[4, 134] deya ta'riflashini konsept lingvokulturologiyada eng ko'p qo'llanuvchi birlilik ekanligi bilan bog'lasak to'g'ri bo'ladi.

Shuningdek, Y.S.Stepanov ta'kidlaganidek, "konsept" bu ma'lum so'z bilan birga keladigan g'oyalar, tushunchalar, bilimlar, uyushmalar, tajribalar to'plami". Konsept bir xil darajadagi kognitiv xususiyatga ega tushuncha hamda ma'no birligidan iborat birlilik: tushuncha – tafakkur birligi, ma'no – tilning semantik birligi. Konsept ong materiali o'laroq, inson ongida psixik izlar va assotsiatsiyalar bilan mavjud. Lingvokognitiv konseptologiya kontseptsiya tushunchasidan lingvistik vositalar yordamida modellashtirilgan milliy kognitiv ong birligining belgisi sifatida, milliy tushuncha sohasini modellashtirish va tavsiflash uchun foydalanadi.Uning nutqda lingvistik vositalar orqali reallashuvi vositalar turiga ko'ra konsepti ham tasniflash imkoniyatini beradi: leksik(so'z), frazeologik(ibora) , sintaktik(gap), semantik(intonatsiya) vositalar orqali va hokazo.

Muhabbat konsepti inson ongi bilan bog'liq ravishda yuz beradigan empirik tuyg'udir. Tuyg'u esa shaxsning sifat va intensivlikka ega bo'lgan ma'lum bir obyekt yoki hodisaga subyektiv baholovchi munosabati. Muhabbat tushunchasi ayni vaqtida ko'plab tilshunos olimlar (S.G.Vorkachev, L.G.Babenko, V.V.Kolesov, L.V.Kulgavova, L.Yager, E.Kapl-Blyum va boshqalar) tadqiqot ob'yektiga aylangan. Bu konseptsiya originallikdir, zeroki, muhabbatni har bir qalb boshqa-boshqa, yangi-yangi propozitsiyada boshidan kechiradi. Bizning tadqiqot ob'ektimiz insonning ichki

dunyosining bir parchasi bo'lgani uchun - ya'ni. psixologik (emotsional) hodisa - qiyosiy lingvistik tahlilda EMOTSIONALLIK kategoriyasiga oid nazariy qoidalardan foydalanishga tayanish mantiqiy ko'rindi (V.I. Shaxovskiy)[1,142] .

Muhabbat konseptini tahlil qilish mobaynida uni uch asosiy talqinda uchratdik:

- 1) kundalik – sodda;
- 2) umumiy - falsafiy;
- 3) badiiy.

Shu bilan birga aytish mumkinki, biz ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasini asos qilib oлganimiz bois, o'zbek lingvistikasida uchraydigan sevgi konseptini shu asarda qo'llanilgan so'z(material)lar orqali izohlaymiz. Muhabbat tushunchasini yuqorida ko'rsatilgan uch talqini tadqiqotchi(o'quvchi)ga quyidagi misollar bilan yana tushunarli bo'ladi:

- 1) Kundalik - sog'inchli salom, jonim, yurak amri bilan
- 2) Umumiy - falsafiy - Anvarning qalbiga bu gap iliqqina, yumshoqqina tegdi[5, 196];

Shundan keyin uning ko'ziga jonajon shahri, o'ynab o'sgan ko'chalari, qarindosh-urug', yor-do'stлari ko'rindi, Vatanini sog'indi[5,162]

- Mana shu muhabbat bo'lsa kerak, - dedi Muattar. – Muhabbat chaqmoqday ko'ngildagi har qanday qora bulutni ham tilka-pora qiladi deyishadi.

- Yo'q! – dedi Anvar, - agar shu muhabbat bo'lsa, muhabbat chaqmoqqina emas, odamga o'xshaydi: tug'ilganda bir parcha go'sht bo'ladi, keyin til chiqarib har kuni yangi bir gap aytadi[5, 226].

- 3) Badiiy - Gamlet aytmoqchi, yo Rabbim, odam odamga bunchalik muhtoj bo'lar ekanu[5,188].

Ishq balodir, ishq balodir,

Oshiq kishilar g'amga mubtalodir [5,204].

Sevgi haqida gap ketadigan bo'lsa, jamiyatning o'rta qatlami bu tushunchani o'z ongida asosan his-tuyg'u assotsiyatsiyalari bilan bog'lashi kuzatiladi. O'zbek tili izohli lug'atida u quyidagicha izohlanadi : 1) kimsaning kimsaga qalbdan berilish hissi; sevgi, ishq.

2) Birovga biron narsaga yoki ishga berilish, moyillik tuyg'usi, mehr. Shu qatorda boshqa til lesikasiga nazar tashlar ekanmiz, rus leksikasida muhabbat — biror shaxsga yoki kishilar guruhiga, g'oyaga yoki amaliy faoliyatga nisbatan intim va kuchli tuyg'u[6.124] sifatida ko'rildi. Bu germenevtga nisbatan nemis ensiklopedik nashrlarida sevgi erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlardagi insoniy tuyg'u sifatida emas, balki Xudoning marhamati va Xudo tomonidan oldindan

belgilab qo'yilgan inson zotining davom etishiga muhtojlik zarurat sifatida tushuniladi, shu bilan birga sevgini kasal odamning jismoniy holati sifatida tushuntiradi[1, 145]. Yuqoridagi xukmlardan biz quyidagicha xulosa yasadik:

Muhabbat tushunchasi u qanday sub'yeqtalar orasida uchrashiga ko'ra uch turlidir:

1. Ruhiy
2. Umumiy (falsafiy)
3. Jismoniy

Ruhiy muhabbat ruhiyat va ruhiyat o'rtasidagi ruhlar birlashuvi, qalblar birligi asosida bo'lib, u o'zbek leksikasida ishq atamasi bilan qo'llanadi. Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida biz ushbu konseptni har uch turini aniqladik. Shu jumladan, ruhiy muhabbat konseptini quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin bo'ldi

Anvar Muhayyoni bag'riga bosib jonini berguday bo'lar edi[5, 189].

Ishq balodir, ishq balodir,

Oshiq kishilar g'amga mubtalodir.[5, 204].

- Mana shu muhabbat bo'lsa kerak, - dedi Muattar. – Muhabbat chaqmoqday ko'ngildagi har qanday qora bulutni ham tilka-pora qiladi deyishadi.

- Yo'q! – dedi Anvar, - agar shu muhabbat bo'lsa, muhabbat chaqmoqqina emas, odamga o'xshaydi: tug'ilganda bir parcha go'sht bo'ladi, keyin til chiqarib har kuni yangi bir gap aytadi [5, 226].

O'zbek mentalitetiga xos ota-onा, ota- onа va farzand, do'stlar, qarindosh-urug' yoki individning o'zi yoqtirgan narsaga bo'lgan mehru-muhabbati singari bir qancha tushunchalarning umummohiyatida umumiy yoki falsafiy qarashdagi sevgi konsepti kuzatiladi va shuni ham ham aytish kerakki, muhabbat empirik tushuncha bo'lgani sababli yuqorida sanab o'tilgan ushbu konseptning har qaysi turi inson ongida ruhiy holati bilan bog'liq holda ro'yobga chiqadi. Ijodkorning "Muhabbat" qissasi asosida olib borilgan tadqiqotimiz mobaynida sevgi konseptini umumiy¹ hamda falsafiy² ko'rinishlarida ham uchratdik.

¹Qani endi otasi yo onasi bo'lsa-yu, boshini ko'kragiga qo'yib ho'ng-ho'ng yig'lasa![5, 192].

Adabiyotni emas, adabiyot o'qituvchisini yaxshi ko'raman[5,159].

Shundan keyin uning ko'ziga jonajon shahri, o'ynab o'sgan ko'chalari, qarindosh-urug', yor-do'stlari ko'rindi, Vatanini sog'indi[5, 162].

Muattar uning shodlikdan uchqun sochib turgan ko'zlariga qaradi va burnini burniga ishqaguday bo'lib:

-Muncha ham tiling biron bo‘lmasa?-dedi va Muhayyoni mehr bilan bag’riga bosdi [5, 224].

Rashq xususiy mulkchilik kayfiyatidan tug’ilgan[5, 167].

Gamlet aytmoqchi, yo Rabbim, odam odamga bunchalik muhtoj bo‘lar ekanu[5, 188].

Sevgi ehtiroslarga xoslangan, ikki subyektning o‘zaro bir-biriga moyilligi, uning erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlardagi insoniy tuyg'u sifatida qaralishi mazkur konseptning jismoniy turini izohlashga imkon yaratadi. Misol uchun:

Muhayyo o‘lgur buning boshini aylantirib qo‘yganga o‘xshaydi-ku[5, 174].

Anvar yosh bola-ku, qadringizga yetadigan odam bilan gaplashsangiz-chi! Bitta-ikkita ko‘ylak olib berish qo‘lidan keladigan odam bilan gaplapping [5, 184].

Bu olqindi, qiz olmagan yigitning boshini aylantirib yuribdi![5, 188]

Anvar uning qo‘lini mahkam ushlab sekin o‘ziga tortdi[5, 190].

XULOSA

Maqolaga xulosa yasar ekanmiz, professor Dilmurod Quronovning “Muhabbat o‘zi eski narsa, lekin har bir yurak uni o‘zicha yangilaydi”, - degan so‘zları hayolimizga keladi. Rostdan ham serqirra muhabbat konseptini biz tahlil qilgan qismi “xamir uchidan patir”gina, xolos. Sevgi leksemasini tushunchalardagi o‘zgarishlar dinamikasi, ularning tilning qanday leksik qatlamlarida ko‘zga ko‘rinishi, konnotativ tahlili bilan keyingi tadqiqotlarimizda to’xtalib o‘tishni ko‘zda tutdik, zeroiki muhabbat konsepti polifunksionaldir.

REFERENCES

1. Антология концептов. Под ред. В. И. Красика, И. А. Стернина. Том 1. Волгоград: Парадигма, А 21 2005. – 352С.
2. To’xtasinova N.R. Uyat" konsepti tadqiqi. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил 2-сон . Рр. 361-364.
3. Kaziyev Z. Muomala psixologiyasi.- Т.,2001
4. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. – Т.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004 y. 224-b.
5. Muhabbat / A.Qahhor. – Toshkent: Yangi asr avlod. – 248b.